

**ONA TILI DARSLIGIDA SODDALIK VA IZCHILLIK ZARURATI (5 - SINIF  
MISOLIDA)**

**Zarfullayeva Parizoda**

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada ona tili darsligi tahlil qilinib, undagi mavzularni o'quvchi yoshi, psixologik tayyorgarligi hamda bilish faoliyati xususiyatlariga moslashtirish zarurati ilmiy asosda yoritildi. Soddalik va izchillik tamoyillarining bola tafakkuriga ta'siri psixopedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Amaldagi darslikdagi ayrim mavzularni o'zlashtirish, soddalashtirish va amaliy yo'naltirish bo'yicha takliflar ilgari surildi.*

**Kalit so'zlar:** *ona tili, darslik mazmuni, soddalashtirish, izchillik, o'quvchi tafakkuri.*

**Аннотация:** *В данной статье проведён анализ содержания учебника родного языка, обоснована необходимость адаптации его тем к возрастным особенностям, психологической подготовленности и познавательной активности учащихся. Рассмотрено влияние принципов простоты и последовательности на развитие мышления школьников с психолого-педагогической точки зрения. Также предложены рекомендации по усвоению, упрощению и практической направленности отдельных тем действующего учебника.*

**Ключевые слова:** *родной язык, содержание учебника, упрощение, последовательность, мышление учащихся.*

**Abstract:** *This article analyzes the content of the native language textbook and scientifically substantiates the necessity of adapting its topics to students' age characteristics, psychological readiness, and cognitive activity. The influence of the principles of simplicity and consistency on students' thinking is examined from a psychopedagogical perspective. In addition, the paper proposes suggestions for mastering, simplifying, and making certain topics of the current textbook more practice-oriented.*

**Keywords:** *native language, textbook content, simplification, consistency, students' thinking.*

Ona tili fani – o'quvchining tafakkurini shakllantiruvchi, nutq madaniyatini yuksaltiruvchi va fikrlash doirasini kengaytiruvchi asosiy fanlardan biridir. O'quvchilar uchun 5-sinf bu jarayonda o'tish bosqichi bo'lib, o'quvchi endi nazariy tushunchalarni amaliy nutqqa tatbiq eta boshlaydi. Shu bois darslik mazmunining soddaligi, izchilligi va psixologik mosligi ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

Bola psixologiyasi nuqtayi nazardan 10-11 yoshli o'quvchilar ko'rgazmali-obrazli tafakkurdan mantiqiy tafakkurga o'tish bosqichida bo'ladilar. Shu davrda ular uchun murakkab tildagi nazariy izohlar emas, balki hayotiy misollar va kuzatish asosidagi tushuntirishlar samaraliroq natija beradi. Psixolog L.S Vygotskiy ta'kidlaganidek, "Bola yangi bilimni ilgari bilgan narsasi bilan bo'g'lagandagina uni ongli o'zlashtiradi". Demak, darslikdagi soddalik faqat tildagi qulaylik emas, balki psixologik ehtiyojhamdir.

Hozirgi 5-sinf ona tili darsliklarining asosiy kamchiliklaridan biri – mashqlarning bir xilligi va mexanik takroriyligidir. Darslikdagi ko‘plab topshiriqlar “so‘z turkumini aniqlang”, “gap tuzing”, “matndan toping” kabi buyruq shaklda ifodalangan bo‘lib, ular o‘quvchini faqat tayyor javobni topishga undaydi. Bu esa bola tafakkurini faollashtirmaydi, tahliliy va ijodiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirmaydi. Ta‘lim samaradorligi uchun o‘quvchi bilimni amalda qo‘llashi, ya‘ni o‘qigan narsasini hayotiy vaziyatga tatbiq qila olishi lozim.

Shu bois, mashqlarni ijodiy va amaliy shakllarda berish muhim. Masalan, “Sevimli hayvoning haqida 5 ta gap yoz”, “Tabiatni asrash haqida kichik insho tuz” kabi mashqlar bolaning tasavvurini kengaytiradi, mustaqil fikrlashni rag‘batlantiradi va nutqiy faolligini oshiradi. Shuningdek, ijodiy topshiriqlar orqali o‘quvchi grammatika bilimini amalda qo‘llashni o‘rganadi, bu esa tilni quruq nazariya sifatida emas balki ishlatiladigan vosita sifatida anglashga yordam beradi. O‘quvchilarning faol ishtirokini ta‘minlash uchun har bir mashqda o‘yin elementi yoki muhokama imkoniyati bo‘lishi zarur. Bu yondashuv o‘quvchini darsning passiv tinglovchisidan faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Ona tili ta‘limida muhim jihatlardan yana biri – o‘quvchi psixologiyasini hisobga olishdir. Bu davrda ularning tafakkuri obrazli, hissiy va hayotiy misollar asosida rivojlanadi. Ular uchun mavhum, falsafiy ifodalar emas, balki aniq, oson tushunarli va hayot bilan bog‘liq matnlar zarur.

Ammo hozirgi darsliklarda ko‘plab matnlar kattalar nutqiga yaqin yozilgan, murakkab iboralar va so‘zlar bilan to‘la. Shu sababli, o‘quvchida matnni o‘qisa-da ma‘nosini chuqur tushunmaslik, o‘qishga bo‘lgan qiziqishida sustkashlik, “ona tili – qiyin fan” degan salbiy qarashning shakllanishi kuzatilishi mumkin.

Masalan, “Inson tabiat bilan uyg‘un yashasa, hayot go‘zallikka to‘ladi” kabi ifodalar estetik jihatdan chiroyli, ammo bola tafakkuri uchun biroz og‘ir. Shu fikrni “Tabiatni asrasak, hayotimiz yanada chiroyli bo‘ladi” shaklida ifodalash o‘quvchi uchun soddaroq va ta‘sirchanroq bo‘lib, u o‘rganayotgan tilini “yashayotgan til” sifatida qabul qiladi.

Bundan tashqari, 5-sinf ona tili darsliklarida audio, video va interaktiv vositalarning yetishmasligi ham ta‘lim samaradorligini pasaytiradi. Hozirgi raqamli avlod vakillari ko‘rish, eshitish va amalda sinash orqali ma‘lumotni tez o‘zlashtirishga allaqachon o‘rgangan. Ammo darsliklarda bu jihatlar ko‘zga tashlanmaydi va mashqlar faqat matnga asoslangan holda tuzilgan.

Agar darsliklarda QR-kodli videolar, audio topshiriqlar yoki interaktiv qo‘shimcha mashg‘ulotlar kiritilsa, dars jarayoni yanada jonli va qiziqarli bo‘ladi. Statistika shuni ko‘rsatadiki, vizual va eshituv orqali o‘rganilgan bilim 70-80% gacha esda qoladi, faqat matn asosida o‘rganilgan axborot esa 40% dan kam darajada saqlanadi. Bu esa zamonaviy darsliklarda ko‘rgazmalilik va multimediyaviy yondashuvning naqadar muhimligini isbotlaydi. Shu jihatdan, darslik mavzulari yangi nashrlarni yaratishda raqamli texnologiyalar imkoniyatini hisobga olgan holda zamon bilan hamnafas, bolalar hayotidagi multimedia olamiga moslashgan bo‘lmog‘i lozim deb hisoblaymiz.

Ona tili darsliklarini tuzishda soddalik va izchillik tamoyillariga qat'iy amal qilish ta'lim samaradorligini belgilovchi muhim omillardandir. Chunki bu tamoyillar o'quvchilarning yosh xususiyatlari, psixologik tayyorgarligi hamda bilish faoliyati darajasiga mos materiallar tanlashni taqozo etadi. Ayniqsa, 5-sinf o'quvchilari uchun ona tili darsliklari ularning og'zaki va yozma nutqini shakllantirish, fikrlash doirasini kengaytirish, nazariy bilimlarni amaliy nutqqa tatbiq etish jarayonida asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Shu bois darslikdagi har bir mavzuning tili sodda, mazmuni izchil, tushunarli va psixologik jihatdan mos bo'lishi o'quvchilarda fanga nisbatan ijobiy munosabat, mustaqil fikrlash, mantiqiy tafakkur va nutq madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Soddalik o'quvchini murakkab tushunchalardan charchatmay, o'qituvchi bilan faol muloqotga chorlaydi; izchillik esa bilimlarning bosqichma-bosqich mustahkamlanishini ta'minlaydi. Natijada ona tili darsligi nafaqat o'quv jarayonining asosiy manbai, balki shaxsning tafakkurini, nutqini, ijodiy salohiyatini shakllantiruvchi muhim pedagogik vosita sifatida o'z ahamiyatini namoyon etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim tizimini rivojlantirish va sifatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3775-son qarori. – Toshkent, 2018.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi umumta'lim fanlari davlat ta'lim standarti (DTS). – Toshkent: XTV, 2021.
4. Yo'ldoshev M., Usmonov S. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: "O'qituvchi", 2019.
5. Tojiyeva G. Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini samarali tashkil etish metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
6. Suyunov A. Til o'qitish jarayonida psixologik yondashuvlar. – "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, №2, 2021. – B. 45–52.
7. Abdullaeva Z. Ona tili darsligining soddaligi va izchilligi o'quvchilarning tafakkuriga ta'siri. – "Pedagogik mahorat" ilmiy jurnali, №4, 2022. – B. 67–73.
8. Vygotskiy L. S. Psixologiya obucheniya i razvitiya rebenka. – Moskva: Pedagogika, 2020.
9. Piaget J. Psixologiya intellektual rivojlanish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
10. Rahmonova D. Ona tili ta'limida lingvodidaktik izchillik tamoyillari. – Toshkent: TDPU, 2021.